

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH KAFOLATLARI

Yigitaliyev Diyorbek Dilshodjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi

diyorbekyigitaliyev2304@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada korrupsiyaning mamlakat huquqiy hamda davlat tizimiga ta'siri, uning salbiy oqibatlari va uni oldini olish choralari tahlil qilinadi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanganishi, hamda Konstitusiyada belgilangan qonun ustuvorligi, ochiqlik, davlat hokimiyyati organlarini shaffof sifatida ishlashi va fuqarolarning erkin tarzda axborot olish huquqi kabi tamoyillarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi o'rni va maqsadi yoritib beriladi. Shuningdek, Konstitutsiyada bevosita yoki bilvosita tarzda ifodalangan korrupsiyaviy xavflarga qarshi kafolatlar, ularning amaliyotdagি qo'llanilishi va mavjud muammolar tahlil etiladi. Maqolada konstitutsiyaviy normalarni takomillashtirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tahliliy takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, huquqiy asoslar, davlat siyosati, konstitutsiyaviy jinoyatlar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, ochiqlik va shaffoflik, huquqiy islohatlar, konstitutsiyaviy kafolatlar.*

ABSTRACT: *This article analyzes the impact of corruption on the legal and state systems of the country, its negative consequences, and measures to prevent it. It highlights the designation of anti-corruption as a priority direction of state policy and examines the role and purpose of principles enshrined in the Constitution such as the rule of law, transparency, the open functioning of state authorities, and the right of citizens to freely access information in combating corruption. Additionally, the article explores constitutional guarantees against corruption risks expressed directly or indirectly, their implementation in practice, and the existing challenges. Scientific and analytical proposals are provided to improve the effectiveness of anti-corruption efforts by enhancing constitutional norms.*

Keywords: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal foundations, state policy, constitutional crimes, rights and freedoms of citizens, transparency and openness, legal reforms, constitutional guarantees.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется влияние коррупции на правовую и государственную системы страны, её негативные последствия, а также меры по её предотвращению. Особое внимание уделено определению антикоррупционной деятельности как приоритетного направления государственной политики, а также рассмотрению роли и значения таких принципов, закреплённых в Конституции, как верховенство закона, прозрачность, открытость деятельности органов государственной власти и право граждан на

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

свободный доступ к информации в борьбе с коррупцией. Кроме того, в статье исследуются конституционные гарантии против коррупционных рисков, выраженные прямо или косвенно, их практическая реализация и существующие проблемы. Представлены научные и аналитические предложения по повышению эффективности борьбы с коррупцией путём совершенствования конституционных норм.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, правовые основы государственная политика, конституционные преступления, права и свободы граждан, прозрачность и открытость, правовые реформы, конституционные гарантии.

KIRISH

Korrupsiya har qanday jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, huquqiy davlat tamoyillariga zid bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. U fuqarolarning davlat hokimiysi organlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi, qonun ustuvorligi va adolat mezonlariga putur yetkazadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish har qanday taraqqiyot yo'lidan borayotgan demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimli yondashuv shakllanmoqda. Bu borada Konstitutsiya muhim huquqiy manba sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini, shuningdek, davlat organlarining faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini belgilab beradi. Aynan shu konstitutsiyaviy tamoyillar korrupsiyaning oldini olishda muhim kafolat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, adolatlari huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, 2022-yilda qabul qilingan yangilangan Konstitutsiya loyihasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi alohida e'tibor bilan yoritilgan bo'lib, bu borada qonun ustuvorligi, ochiqlik, davlat boshqaruvida shaffoflik, fuqarolarning axborot olish huquqi kabi konstitutsiyaviy prinsiplar muhim o'rinn tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash va "korrupsiyasiz soha"ni takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolarning muhim konseptual g'oyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qator ma'ruza hamda asarlarida ("Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". I jild; "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz"; "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi"; "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"; BMT Bosh Assambleyasi 72, 75-sessiyalarida so'zlagan nutqlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari), shuningdek, Respublikamiz olimlaridan Q.R.Abdurasulova ("Jinoyatning maxsus sub'ekti"), R.A.Zufarov ("Poraxo'rlik uchun jinoiy javobganrlilik"), I.M.Mirzaramov ("Jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishga qarshi kurashning huquqiy

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

choralari”), Sh.R. Qobilov (“Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlari va oldini olish yo‘llari”) larning asarlari, monografiyalari, risolalari, ilmiyuslubiy maqolalarida o‘rganilgan. Mazkur maqolada o‘rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning siyosiy-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga harakat qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Korrupsiya – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, huquqiy va siyosiy muammo bo‘lib, har qanday davlatning taraqqiyoti, huquqiy tizimi va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. U davlat boshqaruvidaadolatsizlik, ishonchszizlik va fuqarolar huquqlarining buzilishiga olib keladi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish demokratik jamiyatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham ustuvor vazifalardan biridir. Mazkur bo‘limda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy kafolatlari, ularning mazmun-mohiyati, amaliyotdagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida, korrupsiyaga qarshi kurashishda ham muhim rol o‘ynaydi. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangilangan Konstitutsianing qator moddalarida korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari bevosita va bilvosita tarzda o‘z ifodasini topgan.

Avvalo, Konstitutsianing 15-moddasiga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliv yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”. Ushbu norma bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy poydevorini tashkil etadi, chunki korrupsiya yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillarni zaiflashtiradi.

Konstitutsianing 2-moddasida esa quyidagicha belgilangan: “Davlat organlari, ularning mansabdar shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldir.” Bu norma korrupsiya xavfiga qarshi davlat organlari faoliyatida shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Konstitutsianing 33-moddasida fuqarolarning axborot olish huquqi kafolatlangan. “Har bir shaxs davlat organlari va ularning mansabdar shaxslari faoliyati haqida axborot olish huquqiga ega.” Bu norma fuqarolik jamiyatining faolligi va davlat organlarining hisobdorligini ta’minlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida axborot ochiqligi va oshkoraliq tamoyillari nihoyatda muhim.

Bundan tashqari, Konstitutsianing 130-moddasida: “Sudlar qonun va adolat asosida ish yuritadi. Sud hokimiyati mustaqildir, faqat qonunga bo‘ysunadi.” – deb belgilangan. Sud tizimining mustaqilligi korrupsiyaviy jinoyatlarni adolatli ko‘rib chiqish va muqarrar jazolanish prinsipini ta’minlaydi.

Konstitutsiyaviy asoslar bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi bir qator maxsus normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Ulardan eng asosiysi bu – “Korrupsiyaga qarshi kurashish

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

to‘g“risida”gi Qonun (2017-yil 3-yanvar). Mazkur Qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari, subyektlari, ularning vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlarini aniq belgilab bergan.

Unga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida oshkoralik va shaffoflik;
- jamoatchilik nazorati;
- jazo muqarrarligi va boshqalar.

Bundan tashqari, “2021–2025-yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy strategiya” asosida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlik kuchaytirilib, korrupsiyani bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy e’tiborda bo‘lgan bo‘lsa-da, ayniqsa, so‘nggi yillarda bu borada tub burilish kuzatildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangani hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sod Farmoni asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi;

2021–2025-yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilindi;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g“risida”gi qonunga muvofiq, har birdavlat organi va tashkiloti o‘zining ichki korrupsiyaga qarshi dasturini ishlab chiqishi majburiy bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi huquqiy asoslar keng qamrovli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g“risida”gi Qonun ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, subyektlari, ularning vakolatlari va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ushbu qonunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, oshkoralik, jamoatchilik ishtiroki, tizimlilik va kompleks yondashuv belgilangan. Bu prinsiplarga asoslanib, davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida ishtirok etadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim huquqiy hujjatlardan biri bu 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sodli Prezident qaroridir. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan bo‘lib, u korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatlari organ hisoblanadi. Agentlikning asosiy vazifalari qatoriga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kiradi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi 2023-yil 8-avgustda qabul qilingan O'RQ-860-sonli Qonun bilan belgilangan. Ushbu qonunga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida ekspertizadan o'tkaziladi. Ekspertiza jarayonida maxsus cheklistlar to'ldiriladi va aniqlangan korrupsiyaviy omillar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tartib korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu hujjatlar Konstitutsiyada belgilangan umumiylarni amaliyatga tadbiq etish yo'lida zaruriy huquqiy asoslar yaratdi. Amaliyatda esa korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida ijobiy natijalar bilan bir qatorda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hollarda davlat organlari faoliyati haqida axborotlar o'z vaqtida va to'liq taqdim etilmasligi, ayrim sudlarning mustaqilligiga putur yetkazuvchi holatlar, jamoatchilik nazoratining sustligi, fuqarolik jamiyatni institutlarining faoliyati cheklanganligi, korruption xatti-harakatlar haqida axborot bergan shaxslarning yetarli darajada himoya qilinmasligi kabi muammolar haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu muammolardan kelib chiqib, ayrim takliflar ilgari surish mumkin. Avvalo, Konstitutsiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida norma yoki bob kiritish orqali ushbu masalaning davlat siyosati doirasida uzviy qamrab olinganini yana-da aniq ko'rsatish mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro standartlarga moslashish nuqtayi nazaridan ham foydalidir. Ikkinchidan, davlat organlarining hisobot berish mexanizmlarini kuchaytirish, ularning byudjetdan sarflangan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldida javobgar bo'lishini qonunan mustahkamlash lozim. Uchinchidan, axborot olish erkinligini ta'minlovchi ochiq portal va elektron tizimlarni keng joriy qilish, korrupsiyaviy xavf bo'lgan sohalarda onlayn monitoringni yo'lga qo'yish, bu boradagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy holatlarni fosh qilgan fuqarolarni himoya qilish tizimini mustahkamlash, anonim murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini rivojlantirish orqali fuqarolarning ishonchini mustahkamlash mumkin. Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning axborot olish huquqi real hayotda to'liq ta'minlanmas ekan, korrupsiyaga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish mushkul bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mamlakatda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi tizimli kurash olib borish borasida zaru huquqiy baza shakllantirilgan bo'lib, bu borada Konstitutsiya, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, shuningdek, xalqaro huquqiy majburiyatlar asosiy rol o'ynaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning davlat boshqaruvi tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda huquqiy madaniyatni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaning murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa ekanligini inobatga olgan holda, unga qarshi kurashda faqat jazolash choralarini emas, balki oldini olish, ochiqlik,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

shaffoflik, samarali jamoatchilik nazorati, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish kabi ilg‘or tamoyillarni keng joriy qilish zarur. Bunda Konstitutsiyaviy tamoyillar – huquq ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, fuqarolarning axborotga erkin kirish huquqi, davlat organlarining ochiqligi kabi kafolatlar muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim kamchilik va muammolar mavjud: ayrim davlat organlarining faoliyati yetarli darajada ochiq emasligi, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga tahliliy yondashilmasligi, manfaatlar to‘qnashuvi mexanizmining to‘liq ishlamasligi, shuningdek, fuqarolarning ushbu jarayonlarda ishtirok etish faolligining pastligi shular jumlasidandir.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Korrupsiyaga qarshi profilaktika choralarini kuchaytirish – ayniqsa ta’lim, sog‘liqni saqlash, sud-huquq sohalarida faoliyat yurituvchi xodimlarga korrupsiyaga qarshi etik qoidalarni doimiy ravishda tushuntirish va ularni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qitish zarur.
2. “Korrupsiyaviy xavf-xatar” tushunchasini aniqlashtirish va normativ-huquqiy hujjatlarda tahliliy vosita sifatida joriy qilish – bu orqali qonun loyihalari va amaldagi me’yoriy hujjatlar ekspertizasining sifati oshiriladi.
3. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish – ayniqsa, davlat xizmatchilari va ularning yaqin qarindoshlari uchun moliyaviy manfaatlar deklaratsiyasini majburiy joriy etish lozim.
4. Davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish – elektron hukumat tizimi, “ochiq budjet”, “ochiq shartnoma” portallarini kuchaytirish orqali shaffoflikni oshirish mumkin.
5. Jamoatchilik nazoratini huquqiy jihatdan yanada kuchaytirish – fuqarolik jamiyatni institutlari, OAV va faollarni korrupsiyaga qarshi monitoring jarayonlariga faol jalb etish uchun rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur.
6. Xalqaro tajribalardan keng foydalanish – OECD, GRECO, UNODC kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or modellar asosida milliy qonunchilik va siyosatni takomillashtirish lozim.
7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yakka tartibda emas, tizimli yondashuvni shakllantirish – barcha darajadagi davlat organlari, mahalliy boshqaruv tuzilmalari, xususiy sektor va jamoatchilikni bu jarayonga birdekkal jalb qilish lozim.
8. Huquqiy savodxonlikni oshirish – keng jamoatchilik orasida huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, korrupsiyaning zararli oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Shular bilan bir qatorda, mamlakatimizda bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy munosabatlarni tartibga solish, ushbu sohadagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, ushbu illatni Idizi bilan yo‘q qilish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni qaror toptirishda idoralalararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, davlat boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi faoliyatiga zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, videokuzatuv tizimlari,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS



elektron hisob-kitob va almashinuv, idoralararo ma'lumotlar bazalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/-3088008>
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sonli Prezident qaroridir <https://lex.uz/ru/docs/-4875782>
4. 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy strategiya <https://lex.uz/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>
6. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihibalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-6561894>
7. "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyulndagi PF-6257-son Farmoni <https://lex.uz/docs/5495529>
8. .Friedrich Carl J. The Pathology of Politics: Violence, Betrayal Corruption, Secrecy and Propaganda. New York: Harper&Row, 1972.
9. Khursandovna, K. G., & Umırzokvich, R. U. (2021, March). NATIONAL COLOR: CONTENT-ESSENCE. In Archive of Conferences (Vol. 17, No. 1, pp. 29- 31).
- 10.<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashishning-siyosiy-huquqiy-mexanizmlari-va-chora-tadbirlari>

